
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI TUMANDAGI TA’LIM MUASSASALARIDA HAM QIZG’IN DAVOM ETMOQDA

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tumanning barcha hududlarida daraxt ekish ishlari keng qamrovda olib borilmoqda.

Jumladan, bugun tumandagi 1- hamda 15-sonli DMTTlarda “Yaxshidan bog’ qoladi” shiori ostida daraxt ekish tadbirlari bo’lib o’tdi.

Tadbirda tuman hokimi o’rinbosari Elmurodxon Madaminov, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig’i Abdumajid Soliyev hamda muassasalar rahbar-xodimlari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida bog’chalarning bo’sh yer maydonlariga manzarali hamda mevali daraxt ko’chatlari ekildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi tumanning barcha hududlarida va muassasalarida davom etmoqda. Barchani loyihada faol ishtirok etishga, o’zi yashab kelayotgan mahalla va ko’chalarni yashil makonga aylantirishga xissa qo’shishga chorlab qolamiz.

2023-10-26 12:15:38